

BUGUNGI KUNDA INGLIZ TILINING HAYOTIMIZDAGI O`RNI

Xudayberdiyeva Nilufar Olimjon qizi

Andijon viloyati Iboskan tumani

12 -umumi o'rta ta'lim maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berilgani, Til muloqot qilish va dunyo bo'ylab insonlarning bir-birlari bilan aloqada bo'lislchlari va mamlakatlararo yaxshi munosabatlarni o'rnatishning birlamchi vositasi ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *til, muloqot, munosabat, ingliz tili, o'rganish, qiziqish, imkoniyatlar, ta'lim, takomillashtirish.*

Zamonaviy ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlanтирish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligidagi ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktabalarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihatni, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibligi ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshladilar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallahga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili

o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzallikkali mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga riosa qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarini yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi.

Til muloqot qilish va dunyo bo'ylab insonlarning bir-birlari bilan aloqada bo'lishlari va mamlakatlararo yaxshi munosabatlarni o'rnatishning birlamchi vositasidir. Zamonaviy dunyoda ingliz tili boshqa tillarga nisbatan turli davlatlar, mamlakatlar va mintaqalarda istiqomat qiluvchi ko'proq odamlar tomonidan foydalaniladigan til sifatida boshqa tillardan ajralib turishi sir emas. U bugungi kunda meditsina, injenerlik, jurnalizm, ta'lim, biznes, ilm-fan, texnologiya va ommaviy axborot vositalari, farmakologiya ilmiy izlanishlar kabi ko'plab sohalarida yetakchi rolb o'ynayotgan til bo'lib qoldi. Ingliz tilini xalqaro til maqomiga olib chiqqan bir qancha omillar mavjud. Internetdagagi aksar ma'lumot ingliz tilida bo'lganligi tufayli bu tilni biladigan va vebsaytlardan kerakli ma'lumotni o'z vaqtida olishga imkonni bo'lgan muta-xassislarga talab kundan kun ortib bormoqda.

Yuqoridaagi fikrlarni hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan o'zbek yoshlari bu tilni puxta o'zlashtirishlari va undan to'g'ri foydalana oladigan mutaxassislar bo'lib yetishishlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ana shu zaruratni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida, jumladan, shunday deyiladi: "Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'z davrida yoshlarga murojaat qilib, "Quyoshlig' istasang kasbi kamol et", deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdekmennat nur taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson, kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarni o'zlashtirishi lozim.

Hozirgi davrda xorijiy tillarni mukammal o'rganmasdan turib, buyuk bobomiz aytgan ana shunday marralarga erishib bo'lmaydi, desak, adashmagan bo'lamiz.

Bunday o'tkir talabga amal qilib, kelgusi yilda fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilashni taklif etaman".

Ingliz tiliga va uni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassislaraga talab katta bo'lgan zamonaviy dunyoda uni har tomonlama o'rganish barcha ko'nikmalarni puxta shakllantirishni taqozo etadi. Ingliz tilini til tashuvchilari darajasida yoki unga yaqin darajada o'zlashtirish uchun o'qituvchilar maktablarda, ta'lim jarayonida barcha til ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan mashq, topshiriq va darslarni tashkil qilishi va til o'rganish jarayonida an'anaviy o'qituvchi emas, balki fasilitator (ko'mak beruvchi) rolini bajarishi kerak bo'ladi. Ushbu til ko'nikmalari: tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking), o'qish (reading), yozish (writing) . Til o'rganishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ushbu ko'nikmalarning har birining o'rni katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi «CHet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori.
- 2.Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2sinf –Toshkent –O'zbekiston;2014
3. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003